

**IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINING
FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

Fozilov Botirjon Zakirovich
Andijon davlat universiteti 2-bosqich doktaranti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lrim muassasalarida o'quvchilarining faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish, hamda rivojlantirish borasida so'z boadi.*

Kalit so'zlar: *Kompetensiya, tashqi omil, pedagogik-psixologik, individual sifatlar, fuqarolik jamiyati, faol fuqarolik pozitsiyasi;*

Kompetensiya tushunchasini shaxsga qo'yiladigan, unga muayyan faoliyat sohasidagi hayotiy vazifalarni samarali yechishda imkon beradigan ob'yektiv talab sifatida qaraymiz va talabada ma'lum kompetensiyalarning mavjudligi zaruriy ob'yektiv komponent deb, hisoblaymiz. Talaba obyektiv komponenti pedagogik-psixologik rivojlanishning muayyan darajasini tushunish kerak, chunki talaba individual sifatlarining barcha sohalarini rivojlantirishdagi kompetensiyalarni egallash mumkin. «Ijtimoiy faol fuqarolik kometensiya» tushunchasini, uning tuzilishi va uning tarkibiga kiruvchi kompetensiyalar nomenklaturasini aniqlash ham murakkab vazifa hisoblanadi. Mamlakatimiz ta'lrim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida ijtimoiy faol, barkamol talaba - yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mutaxassislar oldida turgan dolzab masaladir. Chunki, mamlakatda demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, fuqarolik huquq va majburiyatlarining butun majmuini faol, mas'ul va samarali amalga oshirish orqali, o'z bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashga imkon beruvchi tayyorgarlik qobiliyatiga ijtimoiy faol fuqarolik deyiladi.

Kompetensiya (lot. compete - erishayapman, munosibman, loyiqman) –

1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdar shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi;

2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba.

Biz bu ta'riflarning ikkinchisiga to'xtalamiz va kompetensiya tushunchasining avvaldan bizga ma'lum bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaga yaqin tushuncha ekanligini anglaymiz.

Ta'limda kompetensiyaviy yondoshuv deyilganda, o'quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli xildagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish tusuniladi. Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhim o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh kadr bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Tayanch kompetensiyalarga esa axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish

kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiyasi, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalari kiradi.

Jamoa rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilardan biri - o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga ishtiyobi hisoblanadi. Kechaga tayyorgarlik ko'rish, shanbaliklarda ishtirok etish kabi maktab tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda o'quvchilarning faqat sinfdan tashqari faoliyatida namoyon bo'ladigan munosabatilarni tahlil etish bilangina cheklanib bo'lmaydi. Sinf rahbari ishining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o'quvchilar jamoasini shakllantiradi. O'quvchilarning asosiy vazifasi o'qishdan iborat. Shuning uchun sind rahbari dastavval bolalarning o'qishda o'quvchilarning o'zaro ga qanday munosabatda ekanliklarini, o'zlarini darsda qanday tutishlarini, bir-biriga sidqidildan yordam berish yoki bermasligini kuzatadi va kerakli tadbirlarni qo'llaydi. Maktab o'quvchilarining bilimga qiziqishi ularning hayotiy ehtiyojlariga bevosita bog'liqdir. Maktab hovlisidagi bog', tokzor, issiqxonada o'tkaziladigan amaliy jarayon - daraxtlarni butash, ularga payvand solish, tok kesish, daraxt o'tqazish, issiqxonalarda pomidor, sabzavotlar yetishtirish qoidalari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Bilimga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va o'stirishda sinflarni, o'quv xonalarini va maktab binosini jihozlash ham katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda bu jarayon turli qarashlar, did, dunyoqarashni shakllantiradi, estetik zavq uyg'otadi, tegishli ma'lum sohalarga havas uyg'otadi. Shuningdek, tadbirlar yoki sayohatlar orqali ham ijtimoiy faol fuqarolikni tarbiyalash mumkin.

Faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini bo'yicha turli yondashuvlar mavjud bo'lib, bu yondashuvlar asosida fuqarolik jamiyatini shakllantirish bilan uzviy bog'liqlikda jamiyati qurish va adolatli jamiyat to'g'risida Markaziy Osiyo, MDH davlatlari va xorij olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda asosan sharq uyg'onish davri olimlari IX-XV asrlarda davlatni boshqarish va adolatli jamiyat qurish, davlat rahbari va xizmatchilarining faoliyat tasniflari, ijtimoiy mas'uliyati mezonlarining nazariy jihatlari haqidagi g'oyalari Abu Nasr Farobi, Abu Ali Ibn Sino, Nizomulmulk, Amir Temur, respublikamiz olimlaridan N.A.Muslimov, B.X.Xodjayev, xorijiy mamlakatlar olimlaridan Dj.Raven, B.Gershunskiy, Dj.Raven va boshqalar ijodida keng tahlil qilingan. Izlanishlarimiz natijasida talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari, rivojlantirish omillari, asosiy tushunchalari ularning ijtimoiy ahamiyati va mamlakatimiz taraqqiyotida har bir shaxsning mas'ulyat, individual xusussiy sifatlarini shaklantirish orqali talabalarda ijtimiy faol fuqarolik kompetensiyasini shaklantirish mumkinligini maqolamiz mazmunida yoritib berdik. Shunday qilib ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasiga keng ta'rif berishga va uni shakllantirish, rivojlantirish sharoitlarini aniqlashga uringan bo'lib, u ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini demokratiya, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish

sharoitlaridagi hayot bilan bog'liq murakkab vazifalarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ixtisoslashgan davlat ta'lif muassasalari o'quvchilarida faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi odatda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Fuqarolik ta'lifi bo'yicha o'quv dasturi: fuqarolik, ijtimoiy tadqiqotlar va axloq kabi fanlarni o'z ichiga olgan keng qamrovli o'quv dasturini ishlab chiqish. Ushbu o'quv dasturi faol fuqarolik bilan bog'liq bilim, ko'nikma va munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

2. Tajribaviy ta'llim: talabalarga real hayotdagi fuqarolik faoliyatida faol ishtirok etish imkoniyatini berish. Bunga ijtimoiy xizmatlar loyihibalarini tashkil etish, bahslarda qatnashish va talabalar boshchiligidagi tashabbuslarga qo'shilish kiradi.

3. Demokratik sinf amaliyotlari: sinfda ochiq muhokamalar, faol ishtirok etish va qaror qabul qilish jarayonlari kabi demokratik amaliyotlarni rag'batlantirish. Bu o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, hamdardlik va turli fikrlarni hurmat qilishni rivojlantirishga yordam beradi.

4. O'rnak namunalari va murabbiylar: o'z tajribalari bilan o'rtoqlashish va o'quvchilarni ilhomlantirish uchun mehmon ma'ruzachilar, jamoat rahbarlari va faollarni taklif qilish. Yo'l-yo'riq va yordam ko'rsatish uchun mentorlik dasturlari ham tuzilishi mumkin.

5. Hamkorlikdagi loyihibalar: Talabalarni ijtimoiy muammolarni hal qiluvchi yoki jamiyat rivojlanishiga yordam beruvchi loyihibalar ustida birgalikda ishlashga undash. Bu jamoada ishlash, yetakchilik qobiliyati va jamiyat oldidagi mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

6. Mulohaza va baholash: Talabalarga o'zlarining fuqarolik tajribalari haqida fikr yuritish va o'z o'sishini baholash imkoniyatini berish. Buni jurnallar, guruh muhokamalari yoki o'z-o'zini baholash mashqlari orqali amalga oshirish mumkin.

7. E'tirof va nishonlash: Talabalarning faol fuqarolik harakatlarini mukofotlar, sertifikatlar yoki ommaviy tadbirlar orqali e'tirof etish va nishonlash. Bu ularning hissalarining ahamiyatini kuchaytiradi va kelgusida ishtirok etishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmon.T. 2016 yil 7 fevral

2. Abdullayeva B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan tayyorgarliginig mazmuni / Boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Jizzax, 2019 yil 6-bet.

3. Usmonov N.|, Xolboyeva G. va boshqalar. Boshlang'ich ta'limda kompetentlikni rivojlantirish omillari. Toshkent. "Fan va texnologiya", 2016. 152 bet.

4. Rustamova N. Media ta'lim va media madaniyat (umumi o'rta ta'lim muassasalari misolida). Toshkent. "Turon zamin ziyo". 2016. 131 bet.